

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil uchun Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 146 385,2 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 6,7 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilga nisbatan 112,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,1 % ga yetdi.

2024- yil uchun Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	121 442,6	146 385,2	106,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	117 526,7	141 431,7	106,7
mahsulotlarga sof soliqlar	3 915,9	4 953,5	107,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	117 526,7	141 431,7	106,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23 284,3	25 006,6	101,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	60 436,5	73 019,3	107,3
sanoat	52 017,3	62 904,4	106,9
qurilish	8 419,2	10 114,9	110,1
xizmatlar	33 805,9	43 405,8	109,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11 931,0	14 877,8	113,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5 728,9	7 173,0	112,8
boshqa xizmat tarmoqlari	16 146,0	21 355,0	104,7

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rish mumkinki, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 47 526,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,7 % ga yuqoridir.

2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



**2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)


	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,8	96,6
mahsulotlarga sof soliqlar	3,2	3,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19,8	17,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	51,5	51,7
sanoat	44,3	44,5
qurilish	7,2	7,2
xizmatlar	28,7	30,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,2	10,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,9	5,1
boshqa xizmat tarmoqlari	13,6	15,0

2024- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 17,7 % ni, sanoat tarmog'i 44,5 % ni, qurilish 7,2 % ni va xizmatlar sohasi 30,6 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,3 f.p. (2023- yilda – 1,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,9 f.p. (2023- yilda – 2,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023- yilda – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,6 f.p. (2023- yilda – 1,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 101,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 17,7 %), sanoatda – 106,9 % (44,5 %), qurilishda – 110,1 % (7,2 %), xizmatlar sohasida – 109,3 % ni (30,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 113,8 % (10,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,8 % (5,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,7 % dan (15,0 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yilda YAHM deflyatori indeksi 2023- yildagi narxlarga nisbatan 112,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 113,2 % va xizmatlar sohasida – 117,5 % qayd etildi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yil uchun kichik tadbirkorlik 76 200,9 mlrd so'mni tashkil etdi (2023- yilda – 61 331,5 mlrd so'm). YAHMdagi ulushi 53,9 % ni (2023- yilda – 52,2 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan o'sishi kichik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2023-2024- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

